O`ZBEK XALQ MAQOLLARINING KELIB CHIQISHI, JANR XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI

Ibragimova Gulsanam Isroil qizi

SHarof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 1-kurs talabasi

gulsanamibragimova018@gmail.com

ANNOTATSIYA*. Ushbu maqolada o`zbek xalq og`zaki ijodining eng qadimgi va keng tarqalgan janrlardan biri bo`lgan maqollarning kelib chiqish tarixi, "maqol" atamasining etimologiyasi, janriy va poetik xususiyatlari hamda yosh avlod tarbiyasidagi o`rni, maqollar nazariy jihatdan tahlil qilingan.*

***KALIT SO`ZLAR:*** *xalq og`zaki ijodi, folklor, maqol, qavlun, poetik, janr, milliy qadriyatlar, tarbiyaviy ahamiyat.*

Xalq og`zaki ijodi har bir millatning ma`naviy madaniy qiyofasi, tarixi, hayotiy tajribalarini o`zida mujassam etgan eng bebaho xazinadir. O`zbek folklorida maqollarning o`rni juda yuqori. Asrlar davomida xalqning turmush tarzi asosida shakllangan va sayqallanib og`izdan-og`izga o`tib kelgan ushbu janr bugungi kunda ham o`zining ahamiyatini, kuchini yo`qotmagan.

"MAQOL" atamasi arab tilidan olingan bo`lib, "*qavlun"*-gapirmoq, aytmoq, so`zlamoq kabi so`zlarga to`g`ri keladi. Arab tilidagi "*maqal"* so`zi lug`aviy jihatdan aytilgan so`z, nutq, fikr degan ma`nolarni anglatadi.

Maqol- xalq og`zaki ijodining kichik hajmli ammo mazmunan nihoyatda teran janri bo`lib, qisqa va lo`nda obrazli, mantiqiy jihatdan tugallangan hikmatli iboradir. Maqollar muayyan shaklga ega janr hisoblanib avloddan avlodga xalqning hayotiy fikrlarini yetkazib beradi. Janr xususiyatiga ko`ra, maqollar ko`pincha ikki qism: ichki qofiya, vazn va ohangdorlikdan iborat bo`ladi.

Turkiy xalqlar maqollarining ilk yozma manbalari XI asrda yashab ijod etgan buyuk olim Mahmud Koshg`ariyning "Devonu lug`atit-turk" hamda Yusuf Xos Hojibning "Quradg`u bilig" asarlarida qayd etilgan. E`tiborli jihati shundaki,

o`sha davrdagi ko`plab maqollardan deyarli o`zgarishsiz bugungi kunda ham foydalanib kelinmoqda. Masalan, Mahmud Koshg`ariy keltirgan: " *Kishi alasi ichdin, yilqi alasi tashtin"* maqoli bugungi kunda "Odam olasi ichida, mol olasi tashida" shaklida qo`llanmoqda.

Tarixiy nuqtayi nazardan, maqollarning eng katta qismi oddiy xalqning kundalik mehnati, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, oilaviy munosabatlar va tabiat hodisalarini kuzatish natijasida paydo bo`lgan.

Maqollarning tarbiyaviy ahamiyati beqiyos. Unda jamiyatdagi insoniylik, halollik, to`g`riso`zlik, mehnatkashlik va kamtarlik kabi ijobiy xislatlar ug`langan. Masalan, "Yaxshilik qil, suvga ot, bilsa baliq bilar, bilmasa-Xoliq" ushbu maqolda yoshlarni beg`araz hech qanday mafaatlarsiz yaxshilik qilishga undaydi. SHuningdek, " Yaxshi so`z jon ozig`i- yomon so`z bosh qozig`i" maqoliga e`tibor qaratsak, ushbu maqolda yaxshi muomila inson ruhiyatini oziqlantirishi, qo`pol, dilozor so`zlar inson boshiga g`am-g`ussa keltirishi haqida aytilgan.

Xulosa o`rnida shuni ta`kidlash joizki, o`zbek xalq maqollarida xalqimizning ko`p asrlik hayotiy tajribasi. dunyoqarashi mujassamlashgan. Ular nafaqat tilimizni boyitadi, balki yosh avlodni tarbiyalashda muhim manba hisoblanadi. Xalq maqollarini chuqur o`rganish, ularni hayotga tatbiq etish milliy o`zlikni anglash, qadriyatlarimizni asrab- avaylashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Mirzayev. T, Musoqulov. A, Sarimsoqov.B, *"O`zbek xalq maqollari"*- Toshkent: "SHARQ", 2005-312-bet.

2. Imomov. K, Mirzayev. T, Sarimsoqov, B, Safarov. O, *" O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi"*(darslik) Toshkent: "O`qituvchi", 1990. 304-bet.

3. Mahmud Koshg`ariyning "Devonu lug`atit-turk" asari, 3 jildlik 1-jild. Toshkent: "FAN", 1960. 499-bet.